

**QIZ BOLAGA KITOB O`QISHNI O`RGATING,
QOLGANINI KITOBNING O`ZI O`RGATADI**

*Xasanova Gulsanam Jahongir qizi
O`zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Filologiya fakulteti
E-mail:gulsanamhasanova@283gmail.com
Telefon raqam: +998 93-293-38-63*

Annotatsiya. Kitobxonlik – dunyo yuksak cho`qqi bo`lsa, uning eng yuqori nuqtasida tik tura olishimiz uchun muvozanat jarayoni. Ta`lim standartlarini yangidan rivojlantirish va zamonaviylashtirish uchun turli innovatsiyalar olib borishimiz shart emas. Biz asosiy diqqatni kitobga bo`lgan mehrni kuchaytirishga berishimiz lozim. Buyuk rus yozuvchisi Maksim Gorkiy ta`kidlaganidek: “ Kitob- inson ixtiro qilgan narsalar ichida eng mukammali bo`ldi”. Qizlarning hayotida kitobxonlikning o`rni esa oiladan keying o`rinda turishi kerak. Zero, kitob o`qigan qiz ota –onasiga rahmat keltiruvchi bo`lishi, kitob o`qigan ayol jufti haloli uchun Qur`on axloqli bo`lishi, kitob o`qigan ona farzandlari uchun soliha validayi sulton bo`lishi bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Kalit so`zlar: qiz bolaning zehni, mustahkam iroda, kitobxonlik samarasi, dunyo minbari, erkin so`z.

Darhaqiqat, erkak kishini o`qitsangiz, faqat uning o`zini o`qitgan bo`lasiz. Agar qiz bolani o`qitsangiz, butun bir millatni, jamiyatni o`qitgan bo`lasiz. Chunki, erkak kishi faqat o`zi o`qiydi. Ayol kishi farzandlarini voyaga yetkazadi. Ular bo`lajak ona, kelajak poydevorlarimiz, ertangi kunimiz egalarining tarbiyachisi. Biz asosiy diqqat e`tiborni qizlarimizning yuksalishiga qaratishimiz lozim. Qizlarimizning kitobxonlik, savodxonlik darajasini cho`qqiga chiqarish uchun ularga kitoblar to`la joy muhitini yaratib berishimiz va kitobxonlikka bo`lgan muhabbatni kuchaytirishimiz zarur. Qolgan ezgu ishlarni kitobning o`zi o`rgatadi. Kitob ularni dunyo minbarlariga olib chiqadi. Kitob ularni baland parvozlar tomon yetaklaydi. Kitob o`zlikni anglashga yordamchi bo`lgan eng qulay vosita.

Asosiy qism: Kitobxonlik- buyuk kelajak kafolati. Shu boisdan azal- azaldan ma`rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o`qishga, undan ilm-u odob sirlarini o`rganishga chorlab kelishgan. Kitob umr yo`llarini yorituvchi so`nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, unga har qanday vaziyatda ham hamroh bo`luvchi sodiq do`s. insonning ma`naviy kamolotini ta`minlashda kitob singari kuchli qudratga ega vosita yo`q. shu bois azal-azaldan ma`rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o`qishga , undan ilm-u odob sirlarini o`rganishga chorlab kelishgan.

Kitob- hayotni yaratuvchi murabbiydir. Dunyonи faqat ilm bilan zabit etish mumkinligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Ilmni chuqur egallashning yo`li esa bitta- kitob o`qishdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mutolaa haqida fikr bildirib, jumladan , shunday degandi: “ ...hammamiz uchun ayni paytda juda muhim ahamiyatga ega bo`lgan masala , ya`ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning

kitobga bo`lgan muhabbatini , ularning ma`naviy immunitetini yana- da oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi. Zero, kitob- qalb chirog`I, tafakkur qanoti. Ayniqsa, kitobdan taraladigan va elektron nashrdan topib bo`lmaydigan o`izga xos yoqimli hidni tuyib, varaqlash asnosida mo`jizaviy sahifalarning sirli shitirlashidan ko`ngil cheksiz zavqqa to`lgan holda kitob mutolaa qilish, uning mazmuni haqida tengdoshlar bilan fikr almashishning huzur- halovati tamoman o`zgachadir.

Alisher Navoiy hazratlari deydilarki, “Kitob- beminnat ustoz, bilim va ma`naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai”.

Qizlarning kitobxonlikka bo`lgan qiziqishlarini oshirish uchun davlatimiz har qanday shart- sharoitlarni yaratib berishi lozim. Badiiy mutolaa ularning ham ma`nan , ham ruhan sog`lom fikrli bo`lishlarini ta`minlaydi. Kitobxonlikni o`rgatsak bo`ldi. Kitobni o`zi ularga hayotni o`rgatadi. Eng qiyin vaziyatlarda ularga yordamchi vosita bo`ladi. Diniy, siyosiy, tibbiy, ilmiy, badiiy va boshqa turli sohalarda savodxon qilib tarbiyalaydi.

Xulosa: Kitob avvalo, hayotiy maktab, ma`naviyat manbai. U kitobxonni hayot bilan tanishtiradi, unda hayotni sevish, yashash mohiyatini anglash hislarini tarbiyalaydi. Atrof- muhitga , tabiatga ijobiy munosabatini shakllantiradi, inson harakterining murakkabliklarini tushuntiradi, ruhiy qiyofaning rangin qirralarini kashf qilish qobiliyatini , ona Vatanga , xalqiga sadoqatli bo`lish tuyg`usini o`stiradi. Badiiy adabiyot o`qish orqali kitobxonning badiiy idroki, mustaqil fikrlash qobiliyati, mutolaa madaniyati, vatan taqdiri uchun javobgarlik tuyg`usi tarbiyalanadi.

Badiiy asar qaysi tur va janrga mansubligidan qat`I nazar , uning mohiyatida inson shaxsini kamol toptirish, mustaqil fikrlash qibiliyatini o`stirish, odamiylik sifatlarini tarbiyalashga yo`naltirilgan bir qator didaktik xususiyatlar, estetik tamoyillar mujassamlashgan bo`ladi. Badiiy asarning eng muhim xususiyati shundaki,u inson qalbini mayinlashtiradi, tuyg`ularini o`tkirlashtiradi, ma`naviy –ruhiy barkamollikni tarbiyalaydi”.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Madaniyat gazetasi/ 8 iyun 2021, yuz.uz
2. Prava vostoka/ Yangi O`zbekiston 57 bet 2022 yil
3. Respublika bolalar kutubxonasi 13 iyun 2020 yil facebook. Com
4. Prezident stipendiyasi sohibasi Jahona Karimova nutqidan tg.me
5. Aziza Shomansurova “Turkiston o`lkasida yashagan ayollar” (149-bet) 2019